



BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KREATIV FIKRLASHGA OID KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA, ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARNING O‘RNI

Smetova Jumabiyke Hamidullayevna

Toshkent amaliy fanlar Universiteti

Pedagogika kafedrasio‘zqituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy sharoitda ta’limning asosiy vazifasi ijodiy fikrlashga o‘rgatishdir. Bo‘lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga oid kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanishning afzalliklari, haqida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, interaktiv metodlar, o‘zqituvchi texnologiya, ijodkorlik, metodologiya.

Аннотация. Основная задача образования в современных условиях – научить творческому мышлению. Будут разъяснены преимущества использования современных интерактивных методов в развитии компетентности творческого мышления будущих педагогов.

Ключевые слова: творческое мышление, интерактивные методы, образовательные технологии, креативность, методика.

Abstract. The main task of education in modern conditions is to teach creative thinking. The advantages of using modern interactive methods in the development of creative thinking competence of future pedagogues will be explained.

Keywords: creative thinking, interactive methods, educational technologies, creativity, methodology.

Hozirgi kunda XXI asr tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, yuksak texnologiyalar zamoni, globallashuv davri deb ta’rif etilmoqda. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagi rivoji axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi.



Ta'limni axborotlashtirish – ta'lim sohasini uslubiy-amaliy jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari bilan ta'minlash hamda ulardan samarali foydalanish asosida ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik, pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan jarayondir. Ta'limni axborotlashtirish ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini intellektuallashtirish jarayoni sifatida faqatgina zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanadi.

Insonning tafakkuri, dunyo qarashi, aql-idroki qancha keng bo'lsa, uning ijod namunalari ham shuncha sermazmun bo'ladi. Bu esa o'z navbatida pedagogika fanidagi "kreativ" tushunchasiga borib taqaladi. Kreativlik (ing "create"-yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarini ishlab chiqishda tayyor tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Insondagi kreativlik hususiyati uning aql, tafakkur, tushuncha, dunyoqarashi, fikrlash, his-tuyg'u, zehinning o'tkirligi kabi jarayonlarda o'z aksini topadi. Kreativlik – muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativ fikrlash har bir shaxsga kerak tushunchadir. Pedagogning kreativ sifatlari haqida gaplashadigan bo'lsak, shaxsiy faoliyatidagi qiziqishlari, qobiliyatlarini, potensial quvvatini oshirib kasbiy faoliyatning samarali bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarda kreativ fikrlash dars jarayonida eski texnologiyalarni bir chetga surib zamonaviy metodlardan foydalanib, zamonaviy texnologiyalar bilan yangiliklar qilib, bir xil shaklda dars o'tmasdan har xil uslubda dars o'tish, tashabbuskor fikrlar bilan dars jarayonida hammani qiziqishini oshirib, dars ta'sirini yuqoriga ko'taradi. Pedagogning kreativ sifatlari: bolalarni o'quv faoliyatini, ijobiy sifatlarini rivojlantirish. Shu bilan birga mustaqil ravishda tarbiyani, bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Kreativ fikrlash uchun pedagoglar talabalik davrlaridan kasbiy faoliyatni rivojlantirib borishlari kerak. O'zini ustida ko'p ishlashi, o'zini ijodiy faoliyatga yo'naltirishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishlari lozim.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi.



Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi “interaktiv” metod bo‘lib, hozirda uning chala tarjimasi ko‘p hollarda “interfaol” deb yuritiladi, “interaktiv” atamasi aslida inglizcha “interaktiv” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zaro ta’sirlashish” ma’nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o‘zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o‘quv qo‘llanmalarini varaqlaganimizda “o‘qitishning interaktiv metodlari” termini qo‘llanishini ham guvoxi bo‘ldik. Ta’lim berish jarayoni bevosita o‘qitish metodi bilan uzviy bog‘liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta’limingiz qanday tashkil etilishidadir.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, o‘qituvchi o‘quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to‘g‘ri xulosani aytib o‘tib ketadi. Natijada o‘quvchi xatosini o‘zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslanadi. O‘qituvchi qanday bo‘lmasin o‘quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o‘quvchilarni bir-birlarini tinglashga o‘rgatadi. E’tirozlar, qo‘shimchalar ham “hurmatli”, “sizning fikringizga qo‘shilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi so‘zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o‘quvchi o‘zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi.

Interaktiv metodlar o‘quvchilarda doimiy faollikni ta’minlaydi. O‘quvchilar dars davomida bo‘sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo‘ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Interaktiv metodlardan foydalanishda o‘qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyixalash uchun esa o‘qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo‘lishi lozim. Interaktiv mashg‘ulot-o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

Interaktiv metodlar o‘zining quyidagi o‘ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:



1. Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, birbirini to'liq tushuntirishga asoslanadi.
2. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim.
3. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi.
4. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:

- o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlashi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o'rgatishi;
- o'qituvchiga «o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun» xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, «fikrlashni o'rganishlari uchun» xizmat qilishi;

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlariga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish;
5. O'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning muhim jihatlari ta'lim samaradorligiga erishishga etarlicha hissa qo'shish bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunga kelib interaktiv metodlarning ko'plab turlari aniqlangan. Masalan:



1. Aqliy hujum. Breynshtormin
2. O‘yinli o‘qitish texnologiyasi
3. Jamoaviy o‘qitish usuli
4. Kichik guruhlarda ishlash metodi
5. Tarmoqlar metodi
6. «3x4» metodi
7. Blits o‘yini
8. Interv`yu metodi.
9. Iearxiya metodi.
10. Bumerang
11. «O‘quvchi» metodi
12. Muloqot metodi.
13. Boshqaruv metodi hamda “Klaster” “Idrok xarita”, “Zinama-zina”, “FSMU” texnologiyalari “Rolli o‘yinlar”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Esse”, “Assesment texnologiyasi”, “Blits so'rov” va boshqalar. Ularning ba’zilariga izoh berib o‘tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

FSMU texnologiyasi

(F) - Fikringizni bayon eting.

(S) - Fikringiz bayoniga biror sabab ko‘rsating.

(M) - Ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

(U) - Fikringizni umumlashtiring.

«FSMU» texnologiyasini qo‘llashga oid namuna.

«O‘timli va o‘timsiz fe’llarning farqi nimada?» degan savol muhokamaga qo‘yilgan.



F-FIKR O‘timli fe‘llar tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lanish yoki bog‘lanmasligi bilan farqlanadi.

S-SABAB O‘timli fe‘l tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lanadi, o‘timsiz fe‘l esa bog‘lana olmaydi.

M-MISOL O‘timli- o‘qidi(kitobni), yozdi(xatni). O‘timsiz-yugurdi, bordi,chopdi.

U UMUMLASHMA Dars jarayonida ta‘lim oluvchilar o‘timli va o‘timsiz fe‘llarni yaxshi farqlay olishlari lozim.

“Ro‘lli o‘yin ” metodi

Tahsil oluvchilar tomonidan real hayotiy vaziyatlarni o‘quv xonasida modellashtirish (sahnalashtirish) va rollarni ijro etish orqali bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan metod.

“Muammoli ta‘lim” metodi

“Muammoli vaziyat”ni vujudga keltirish, uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda yechimini topishga qaratilgan metod.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida boy tajriba to‘plagan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OchilovM. “Yangi pedagogik texnologiyalar”. – Qarshi: Nasaf, 2000
2. Azizxodjaeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat” – Toshkent: Fan, 2006.
3. Yo‘ldashev J.G., Usmonov S. Ilg‘or pedagogic texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004.